



HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI


“Gender tenglik nafaqat qonunchilik darajasida, balki har bir jamiyatning kundalik hayotida o‘ziga xos muhitni tashkil etadi. Bu masalada biz, albatta, ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlik qilamiz. Gender tengligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ayollar va erkaklarning imkoniyatlarini bir xil holatda ta’minlashga e’tibor qaratishimiz zarur. Agar jamiyatda bu tushuncha to‘g‘ri yo‘nalishda, aniq siyosatlar asosida amalga oshirilsa, natijalarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, biz o‘z tashkilotimizning barcha faoliyatini gender tenglik asosida tashkil qilib, yoshlarning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirishni maqsad qilganmiz.”

2025-YILDA JAMIYATDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI XODIMLARINING GENDER SIYOSATI ASOSLARINI YARATISH BO‘YICHA XABARDORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ANJUMAN-TRENING O‘TKAZILDI.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Osiyo taraqqiyot banki va “Ekvita Italia” AJ hamkorligida tashkil etilgan tadbirga mazkur jamiyat va uning tizimidagi mas’ullar, xodimlar va Gender tenglik kengashi a’zolari taklif etildi.

Unda so‘z olganlar mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.



“Rahbar ayollar maktabi” maxsus malaka oshirish dasturining yangi mavsumida davlat boshqaruvining turli sohalari va turli tizimlarda faoliyat olib borayotgan yuqori kasbiy salohiyatga ega, tashabbuskor 100 nafar xotin-qizlar qatorida, ushbu **4-mavsumda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Xorazm hududiy filiali direktor o‘rinbosari S.G‘ayipova tinglovchi sifatida qabul qilinib, faol ishtirok etdi.**



ZO‘RAVONLIKKA BARHAM BERISHGA BAG‘ISHLANGAN MA’NAVIYAT SOATI O‘TKAZILDI



Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash maqsadida "Zo‘ravonlikka barham berish" mavzusida ma’naviyat soati tashkil etildi.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida" hamda "Xotin-qizlarni ta’ziq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi konvensiyalarning mazmun-mohiyati keng yoritilib, ishtirokchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.



MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN "ELEKTR ENERGIYASIDAN QAY TARZDA SAMARALI FOYDALANISH MUMKIN?" MAVZUSIDAGI SEMINAR TASHKIL QILINDI



Toshkent shahridagi 50-maktab o'quvchilari uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va Fransiya taraqqiyot agentligi hamkorligida elektr energiyasidan oqilona foydalanish, energiya tejamonlik uskunalarini qo'llash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish yuzasidan "ochiq dars" o'tkazildi.

Tadbir davomida ta'lim muassasa o'qituvchilari va o'quvchilariga mavzu yuzasidan atroflicha ma'lumot berilib, video-roliklar, tarqatma materiallar taqdim etildi.



“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJDA “OCHIQ ESHIKLAR KUNI” O‘TKAZILDI




Bugun “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Elektr energiya sotishni avtomatlashtirish Markazi”da maktab o‘quvchilari uchun “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazildi.

Filial mutasaddilari tomonidan maktab o‘quvchilariga elektr energiyasini tejash va oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish hamda elektr ta’minoti tizimida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tildi.

Shu bilan bir qatorda, "Elektr energiya sotishni avtomatlashtirish Markazi" imkoniyatlari hamda bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan o‘quvchilar yaqindan tanishdilar.

Bu kabi tadbirlarni o‘tkazishdan yana bir maqsad o‘quvchi qizlarni sohaga qiziqtirish va kelajakda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va energetika tarmog‘ida xotin-qizlar faoliyatini kengaytirishdan iborat. “Ochiq eshiklar kuni” Jamiyatning barcha tarkibiy korxona filiallari tomonidan ham o‘tkazilmoqda.



“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ XODIMI “MO‘TABAR AYOL” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI



Ancha yillardan buyon turli sohalarda faoliyat yuritayotgan va jamoat ishlarida faol, qolaversa o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan ayollarga ushbu mukofot O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasida 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimda topshirildi.

Quvonarlisi, mana shunday yuksak e’tirof etilgan mo‘tabar ayollar orasida “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Qashqadaryo hududiy filialining Mahsus bo‘lim yetakchi muhandisi Fayziyeva Olga Burxanovna ham bor.

O.Fayziyeva ko‘p yillardan buyon “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda samarali faoliyat ko‘rsatib, yoshlar tarbiyasiga, ularning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishiga qo‘shayotgan katta hissasi uchun ushbu mukofotga munosib ko‘rildi.



7 mart kuni “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ rahbariyati tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan ayollarni bahorning ilk bayrami bilan samimiy tabriklab, nafis qalb egalariga jamoadagi mehnati va shijoati uchun chuqur hurmat-ehtirom va eng ezgu tilaklarini bildirdi.



AYOL XODIMLAR ISHTIROKIDA SPORT TADBIRLARI O‘TKAZILMOIQDA



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-222-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida aynan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Sirdaryo hududiy filiali tomonidan ayol xodimlar o‘rtasida navbatdagi sport tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbirning asosiy maqsadi xodimalarning sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, shuningdek, jamoada hamjihatlik va o‘zaro do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Tadbir davomida xodimlar o‘rtasida arqon tortish, voleybol, quvnoq estafeta kabi sport musobaqalari o‘tkazilib, ishtirokchilar o‘zlarining chaqqonligi, jismoniy tayyorgarligi hamda g‘ayrat-shijoatini namoyon etdilar.


Tadbir yakunida faol qatnashgan va yuqori natija ko‘rsatgan xodimlarga esdalik sovg‘alari topshirildi.



HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ AYOL XODIMALARI TIBBIY KO‘RIKDAN O‘TKAZILDI



O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2012-yil 10-iyuldagi 200-sonli buyrug‘ida belgilangan talablar hamda “Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga yuqumli kasalliklarni oldini olish sohasida texnik yordam ko‘rsatish dasturi” doirasida ishlab chiqilgan meyorlar asosida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan ishchi-xodimlarning sog‘ligini mustahkamlash, kasb kasalliklarining oldini olish, ayniqsa, ayol xodimalarning reproduktiv salomatligini tekshirish, ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash, profilaktika tadbirlarini o‘tkazish va zarur tibbiy maslahatlar berish maqsadida tibbiy ko‘rik o‘tkazildi.



“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining barcha tarkibiy korxonalarida bo‘lgani kabi, Jizzax hududiy filialida ham “Jamiyatda ayolning o‘rni” mavzusida seminar tashkil etildi.

Tadbirda jamiyatning 40 nafar xotin-qizlari ishtirok etishdi. Seminar davomida yurtimizda ayollarning huquqlari, Vatan mehrining onadan boshlanishi, farzand tarbiyasidagi ayollarning o‘rni, shuningdek, korxonada mehnat intizomi va ichki tartib-qoidalariga rioya etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ xodimlari o'rta umumta'lim maktablari bitiruvchilarini tabriklash maqsadida Respublika bo'ylab o'tkazilgan "So'ngi qo'ng'iroq" tadbirlari doirasida maktablarga tashrif buyurib, ularga energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati hamda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar to'g'risida uchrashuvlar tashkil etildi.



Uchrashuv davomida xodimlar yoshlarga energetik kasbi, ma'suliyati va mashaqqatlari, bunda xalq oldidagi xizmatlarini bajarishda ma'suliyat bilan yondoshish lozimligi, hamda sharaflı kasb ekanligi to'g'risida o'z tajribalari bilan mazmunli o'rtoqlashishdi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan elektr energiyasining iqtisodiyotdagi o'rni, undan oqilona foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini joriy qilish orqali tabiiy resurslardan foydalanishning ahamiyati xususida "Ochiq dars"lar o'tkazildi.



IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLI QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA




O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Farmoni va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish va ijrosini ta‘minlash maqsadida Energetika vazirligi tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Sirdaryo viloyati Yangier shahrida O‘zbekiston Respublikasi Energetika vaziriga biriktirilgan mahallardagi kam ta‘minlangan oilalarga tashrif buyurib, ramazon hayiti arafasida ularning holidan xabar olinib, ularga amaliy yordam berildi.

Jumladan, shahardagi Yangiobod va Navro‘zobod mahallalarida istiqomat qilayotgan kam ta‘minlangan oilalar uchun elektr tikuv mashinalari hamda yuk tashuvchi motobayklar sovg'a qilindi.

Mahalla fuqarolari ushbu e'tibordan xursand bo'lishib, rahbar va mutasaddilar haqlariga duoda bo'lishdi.



“BAXTLI BO‘LISH O‘Z QO‘LINGDA!” – HAYOT YO‘LINGNI TO‘G‘RI TANLA!



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ barcha tarkibiy korxonalarida bo‘lgani kabi, Andijon hududiy filiali xotin-qizlari o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish hamda huquqbuzarlik profilaktikasiga qaratilgan “Baxtli bo‘lish o‘z qo‘lingda!” mavzusida targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi.

Uchrashuvda qonuniylikka rioya qilish, ijobiy hayot tarzini tanlash, huquqiy savodxonlikni oshirish va yuksak ma‘naviy qadriyatlarga sodiq bo‘lish bo‘yicha tushuntirishlar berildi. Tadbir davomida ishtirokchilar qonun ustuvorligi va halol mehnat inson hayotidagi eng muhim kafolat ekani haqida muhim xulosalar chiqardilar.



"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ raisi tashabbusi bilan tizimda faoliyat yuritayotgan ayol-qizlar joriy yilning may-iyun oylarida Namangan viloyatida o'tkazilayotgan xalqaro "Gullar festivali"ga tashrif buyurib, tadbir doirasida maroqli dam olishlari, diqqatga sazovor joylarni ko'zdan kechirishlari borasida barcha sharoitlar yaratib berildi.



Sayohat doirasida, shuningdek, shahardagi "Afsonalar vodiysi" bog'i, Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi (Xudoyorxon o'rdasi), Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan "Chodak" dam olish maskaniga tashrif uyushtirildi.




“HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI” AJDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN XOTIN-QIZLAR “XON-ATLAS” FESTIVALIDA FAOL ISHTIROK ETDI



O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashabbusi bilan “Xon-atlas” festivali o‘tkazildi.

Festivalda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tizimida faoliyat yuritayotgan latofatli xotin-qizlar milliyligimiz timsoli bo‘lgan liboslarda munosib ishtirok etishdi.



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ vakillari Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida Maslahat kengashlari uchun “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish” mavzusidagi o‘quv-seminarida faol ishtirok etdilar.

O‘quv seminarida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolati to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan qoidalar ijrosini to‘liq ta‘minlash, idoralararo tajriba almashinuvni kengaytirish, muvaffaqiyatli tajribalarni ommalashtirish, mehnat jamoalarida ayollar va qizlarni yangi bilim, zamonaviy vositalar bilan ta‘minlash kabi masalalar atroflicha muhokama etildi.



“HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ VAKILLARI ENERGETIKA VAZIRLIGIDA BO‘LIB O‘TGAN “GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI”NING TAQDIMOTIDA QATNASHDILAR



2025 – 2029-yillarga mo‘ljallangan ushbu Strategiya Energetika vazirligi, O‘zbekiston energetika, neft-gaz va geologiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hamkorligida ishlab chiqilgan.

Uning asosiy maqsadi – energetika sohasida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rahbarlik lavozimlarida ularning ishtirokini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va gender stereotiplarini bartaraf etishga qaratilgan.

Taqdimotda energetika tizimiga kiruvchi barcha tashkilotlardan gender masalalari bo‘yicha mas’ul xodimlar ishtirok etdi. Tadbir ishtirokchilariga strategiyaning asosiy yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari, amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadbirlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar tomonidan ushbu strategiya nafaqat hujjat sifatida, balki amaliy mexanizm sifatida muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Qatnashchilar ushbu tashabbus energetika tizimidagi barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.



MUSTAQILLIK BAYRAMI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH FAOL XODIMLAR TAQDIRLANDI!



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ barcha tarkibiy korxonalarida bo‘lgani kabi, Sirdaryo hududiy filialida O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlangan “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda filial direktori Y. Dexkanov yig‘ilganlarni bayram bilan tabrikladi, jamoaning fidoyiligini yuksak baholadi hamda bir guruh faol xodimlarni turli mukofotlar bilan taqdirladi. Sohada ko‘p yillik samarali mehnati bilan alohida o‘rnak bo‘lgan mehnat faxriylariga estalik sovg‘alari taqdim etildi.

Shuningdek, tadbir davomida tashkilot tomonidan joriy yilning 8 oylik faoliyati va erishilgan yutuqlar va kelgusidagi rejalar tinglandi hamda ushbu yutuqlarda har bir xodimning alohida hissasi va o‘rni borligi ham alohida ta’kidlab o‘tildi.



"HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI AJ QASHQADARYO HUDUDIIY FILIALIDA XODIMLARING FARZANDLARIGA O'QUV QUROLLARI TOPSHIRILDI.



Ushbu tadbir yangi o'quv yili arafasida xodimlar oilalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etildi. Taqdimot jarayonida bolalarga daftarlar, qalamlar, rangli qog'ozlar, sumkalar va boshqa zarur o'quv anjomlari berildi. Bu esa nafaqat farzandlarning quvonchini oshirdi, balki ota-onalarning ham kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



FARG‘ONA VILOYATIDA “YOSHLAR FORUMI” BO‘LIB O‘TDI



Joriy yilning 17-19 sentabr kunlari Farg‘ona viloyatida "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati hududiy filiallari hamda tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan yosh xodimlar uchun “Yoshlar forumi” tashkil etildi.

Forum doirasida Jamiyatning 14 ta tizim korxona va filiallarining 300 ga yaqin yoshlari ishtirokida Farg‘ona shahrida barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” massividagi "Eko shahar"da “Energetiklar bog‘i”ni tashkil etish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan “Zakovat” intellektual o‘yini hamda bir qator sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilidi.

Shuningdek, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisi Asrorjon Askarovning forumda ishtirok etayotgan yoshlar bilan “Rahbar va yoshlar uchrashuvi”ni bo‘lib o‘tdi.

Ishtirokchilar “Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan hududda olib borilayotgan ishlar hamda zarur jihozlar hamda ehtiyot qismlarni mahalliyashtirish bo‘yicha olib borilayotgan innovatsion yechimlar bilan ham tanishdilar.



“HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI HUDUDIIY FILIALLARI HAMDA TIZIM KORXONALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN AYOLLAR O‘RTASIDA SPORTNING “SHASHKA” VA “STOL TENNIS” TURLARI BO‘YICHA MUSOBAQALARNING RESPUBLIKA BOSQICHI YUQORI SAVIYADA TASHKIL ETILDI.



Mazkur musobaqalar xodimlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jamoada sog‘lom raqobat muhitini yaratish hamda ayollarning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qildi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bellashuvlarda o‘z mahorati va g‘alabaga intilishi bilan ajralib turgan ishtirokchilar g‘oliblikni qo‘lga kiritib, maxsus diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Tadbir barcha qatnashchilarga unutilmas taassurotlar ulashdi hamda ularni kelgusida ham sport bilan muntazam shug‘ullanishga ruhlantirdi.



“ZAKOVAT” O‘YINIGA START BERILDI



Farg‘onada tashkil etilgan “Yoshlar forumi”ning ikkinchi kunida “Zakovat” intellektual o‘yini tashkil etiladi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisi kubogi uchun o‘tkaziladigan zukkolik va bilim bahslarida Jamiyatning tizim korxona va filiallaridan tashrif buyurgan yoshlar 14 ta jamoaga bo‘lingan holda qatnashadilar.

Uchrashuvlar yakunlariga ko‘ra g‘oliblar “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning qimmatbaho sovg‘alari va faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.



Farg‘ona viloyatida tashkil etilgan “Yoshlar forumi” doirasida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruvi raisi Asrorjon Askarov ishtirokida hududiy filiallar hamda tizim korxonalarida faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislar bilan “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” o‘tkazildi.



Tadbir davomida yoshlarga korxona faoliyatidagi islohotlar, joriy yangilanishlar va kelgusi rejalar haqida batafsil ma’lumot berildi, ularning fikr-mulohazalari va takliflari tinglandi. Shuningdek, forum doirasida o‘tkazilgan “Zakovat” intellektual o‘yini g‘oliblari, shuningdek, tizimda fidokorona mehnat qilib, o‘z bilim va salohiyati bilan yuksak natijalarga erishayotgan hamda jamoada faol o‘rnak bo‘lib kelayotgan bir guruh yosh xodimlar taqdirlandilar. Ular uchun esdalik sovg‘alari hamda tashakkurnomalar topshirilib, yoshlarning kasbiy o‘sishi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlar e’tirof etildi.

